

## TARJIMADA REALIYALARNING BERILISHI XUSUSIYATLARI

**O‘narova Iroda Anvar qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti XFF 4-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Tarjimada milliy koloritning eng muhim jihatini ifodalaydigan realiyalarni tarjima qilish muammolari alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur maqolada tarjima jarayonida realiyalarni tarjima qilishda milliy xoslikni saqlab qolishning muhimligi va ularni tarjima qilish usullari haqida fikr boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *realiya, geografik realiyalar, etnografik realiyalar, ijtimoiy-siyosiy realiyalar, transkripsiya, transliteratsiya.*

Barchamizga ma’lumki, tarjima juda murakkab va muhim jarayon hisoblanadi. Sababi shundaki, kitobxon uchun notanish bo‘lgan asar tarjimon orqali yetib keladi va tarjimon asarni qanday ko‘z bilan ko‘rsa, o‘quvchi ham uni shundayligicha qabul qilib, xulosa chiqaradi. Ayniqsa, muayyan xalq tiliga mansub bo‘lgan milliy so‘zlarni ya’ni realiyalarni tarjima qilishda bunga alohida e’tibor berish talab etiladi.

Tarjimashunoslikda realiyalarni va ularni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Bu u borada G‘.Salomov, R.Fayzullayeva, O.Kade, J.Munen, I.Leviy, L.Barxudarov, A.Fedorov, L.Sobolyev va ayniqsa, S.Vlaxov va S.Florinlarning „Tarjimada tarjima bo‘lmaslik“ asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular realiyalarning boshqa terminlardan farqi, tillardagi realiyalarning tematik xususiyatlari va boshqa tillarga tarjima qilishda bo‘ladigan muammolar o‘rgangan.

Realia so‘zi lotincha realia dan olingan bo‘lib, u ashyoviy, haqiqiy degan ma’nolarni anglatadi. Lingvistik atamalar lug‘atida unga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi soʻzlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik” (8.381) deyiladi.

Realialar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan soʻzlarni tarjimada muqobil qayta tiklash evaziga original asarning milliy toʻqimasini oʻzga tilda beshikast qayta yaratishdek yechimi shart boʻlgan tarjima muammosini maʼlum maʼnoda hal etishi mumkin.

Xorijiy til realialarida shunday soʻzlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib, oʻzlashib ketganlar. Ruslardagi rubl realiyasi oʻzbeklarda rubl boʻlib oʻzlashib ketgan. Shuningdek, Evropadagi Euro (oyro) oʻzbek tilida Evro deb oʻzlashtirilgan. Bu ham talaffuz qoidalari bilan bogʻliq hodisa. Ruslardagi tepoloxod, poroxod, vezdexod kabi transport vositalari oʻzbek tiliga ham aynan shu holda oʻzlashganligini koʻrishimiz mumkin. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda. Bundan tashqari, pul birliklari, milliy taomlar yoki davlat tuzilishi bilan bogʻliq soʻzlar ham realialarga misol boʻla oladi. Ammo ular oʻzlashma soʻzlar koʻrinishiga oʻtsalar-da, oʻzlarining milliy oʻziga xosligini yoʻqotmaydi. Masalan, nemislarning markasi, amerikaliklarning dollari, oʻzbeklarining oshi va hokazo.

Realialarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Geografik (fizik geografiya obʻektlari);
2. Etnografik (kundalik hayot, din, sanʼat, madaniyat bilan bogʻliq);
3. Ijtimoiy-siyosiy (maʼmuriy-hududiy tuzilma, aholi guruhlari, hokimiyat organlari va boshqalar).

Geografik realialar odatda transkripsiya yoki transliteratsiya yordamida tarjima qilinadi. Masalan, Washington – Vashington (transliteratsiya), Miami – Mayami (transkripsiya). Maʼnoga asoslangan tarjima kamroq qoʻllaniladi. Masalan, Great Britain- Buyuk Britaniya.

Etnografik realiyalarga biror xalq turmush – tarzi va madaniyatiga oid tushunchalar kiradi. Masalan, etnik tushunchaga oid (kazak), o‘lchov va pul birliklari (funt, frank), san’at va madaniyat tushunchalari nomlariga oid (polvon).

Ijtimoiy-siyosiy realiyalar transkripsiya va transliteratsiya yordamida hamda tasvirlash va analoglar tanlash orqali tarjima qilinadi: ma’muriy-territorial tuzilishga oid tushunchalar (guberniya, shtat); hukumat organlari nomlari (veche)...

Realialarni tarjimada berishda olimlar quyidagi usullarni ilgari suradi:

1. Transkripsiya ;
2. Transliteratsiya;
3. Tarjima orqali yangi so‘z – neologizm hosil qilish;
4. So‘zma-so‘z (kalka) tarjima qilish;
5. Realialarni realiya bilan tarjima qilish;
6. Ma’nosi yaqinlashtirilgan so‘z bilan tarjima qilish;
7. Realiani izohlab bayon qilish;
8. Kontekstual muqobil so‘z bilan almashtirish kabi usullardan foydalanib kelinmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, realiya – bir xalqning kundalik hayoti, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga xos bo‘lgan va boshqa xalqqa yot bo‘lgan o‘ziga xos narsa va hodisalarni nomlaydigan lug‘aviy birliklardir. Bundan tashqari, realiyalar boshqa tilda aniq mosliklarga ega emas va u tarjimada alohida yondashuvni talab qiladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. G‘.Salomov “*Tarjima nazariyasi asoslari*” Toshkent, 1983.
2. R.Doniyorov “*Badiiy tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettirish masalasiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari*” 1962.
3. H.Hamroyev “*Milliy xos so‘zlar – realiyalar va badiiy tarjima. Tarjima madaniyati (maqolalar to‘plami)*. Toshkent, 1982.